

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

JABBOROV BOTIR SHUKUROVICH

**MAKKAJO‘XORI (*Zea mays L. indentata*) YANGI NAV VA
DURAGAYLARINI ASOSIY HAMDA TAKRORIY EKINLAR SIFATIDA
O‘RGANISH, AJRATILGANLARINING O‘STIRISH
AGROTEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Sontents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Jabborov Botir Shukurovich

Маккажохори (*Zea mays L. indentata*) yangi nav va duragaylarini asosiy hamda takroriy ekinlar sifatida o‘rganish, ajratilganlarining o‘stirish agrotexnologiyasini takomillashtirish..... 3

Жабборов Ботир Шукурович

Изучение новых сортов и гибридов кукурузы (*Zea mays L. indentata*) в основной и повторной культуры, совершенствование выделенных их агротехнологии возделывания.....21

Jabborov Botir Shukurovich

Study of new varieties and hybrids of maize (*Zea mays L. indentata*) as main and secondary crops, and improvement of cultivation agrotechnology of the selected ones.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works45

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

JABBOROV BOTIR SHUKUROVICH

**MAKKAJO‘XORI (*Zea mays L. indentata*) YANGI NAV VA
DURAGAYLARINI ASOSIY HAMDA TAKRORIY EKINLAR SIFATIDA
O‘RGANISH, AJRATILGANLARINING O‘STIRISH
AGROTEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Qx1816 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samaguni.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Maxmatmurodov Alisher Ulmasovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent

Azizov Kobuljan Kaxramanovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «09» 01 soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16; faks: (+99866) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz; Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti bosh binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 108 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «25» 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil «12» 12 dagi 11 -raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.X.Rizayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, q.x.f.d., professor

I.X.Amanturdiyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent

S.T.Sanayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo dehqonchiligida makkajo‘xori keng tarqalgan va ishlatiladigan oziq-ovqat, yem-xashak va texnik ahamiyatga ega ommabop universal ekinlardan bo‘lib, “252,5 mln. gektar maydonda yetishtirilib, 1,5 mlrd. tonna yalpi hosil olinmoqda. Makkajo‘xori doni ishlab chiqaruvchi asosiy davlatlar – AQSh (389,7 mln.t.), Xitoy (289,1 mln.t.), Braziliya (132,0 mln.t.), Argentina (41,4 mln.t.), Hindiston (38,1 mln.t.), Meksika (37,5 mln.t.), Ukraina (31,0 mln.t.), Indoneziya (20,0 mln.t.), Rossiya (16,6 mln.t.) hisoblanadi. Har gektardan olinadigan don hosildorligi esa 6,1 tonnani tashkil etmoqda”¹.

Makkajo‘xori ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda bu ekinni o‘stirishda o‘simlik o‘sishi va rivojlanishiga qulay sharoit yaratadigan samarali tadbirlarni ishlab chiqish, barqaror, yuqori va sifatli hosil olishga imkon beradigan muayyan tuproq va iqlim sharoitiga moslanuvchan tezpishar nav va duragaylarini yaratish, turli muddatlarda yetishtirishga mos resurstejamkor zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish borasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonning barcha viloyatlarida makkajo‘xori asosan fermer va dehqon xo‘jaliklarida har yili 220-240 ming, shundan don uchun 70-75 ming gektar maydonda yetishtirilib, hosildorligi gektardan silos massa 35-40 tonna, don esa 5,5-5,8 tonna, yalpi don hosili 385-400 ming tonnani tashkil etadi. Mamlakatimiz turli hudud tuproq-iqlim sharoitlari uchun mos yangi nav-duragaylarini tanlash va yaratish, ularni yetishtirish agrotexnologiyalari ishlab chiqilmoqda va takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston respublikasi Davlat reyestrda hududlarda don va silos massasi uchun ekishga xorijiy mamlakatlardan introduksiya qilingan 68 ta va mahalliy sharoitda yaratilgan 13 ta nav va duragaylari tavsiya etilgan. Respublikamiz olimlari tomonidan keyingi yillarda tishsimon makkajo‘xoring hosildorligi va sifatini oshirish, asosiy va takroriy ekin sifatida o‘stirish agrotexnologiyasi va birlamchi urug‘chiligini takomillashtirish borasida keng hajmdagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan, har bir muayyan tuproq-iqlim sharoitida tishsimon makkajo‘xori yangi nav va duragaylarini kompleks baholash asosida asosiy va takroriy ekinlarga yaroqli, istiqbollilarini ajratish, ulardan yuqori, sifatli hamda arzon hosil olishga qaratilgan agrotexnologik tadbirlar tizimini, shu jumladan maqbul organomineral o‘g‘itlar va o‘stiruvchi stimulyatorlar me‘yorlarini ishlab chiqib, ilmiy va amaliy jihatdan asoslash hamda ishlab chiqarishga keng joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar dolzarb hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-36-son 2024-yil 16-fevraldagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni²; PQ-5009-son 2021-yil 26-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan

¹ <https://www.fao.org/faostat/en/#data/OCL>

² <https://lex.uz/docs/6802687>

vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida³”gi, 2025-yil 30-yanvardagi “Chorvachilik va parrandachilikni qo‘llab-quvvatlash, sohada yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida⁴”gi PQ-34-son qarorlarini hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz turli hududlari, tuproq-iqlim sharoitlarida tishsimon makkajo‘xori yetishtirishda nav va duragaylarini tanlash, yaratish, o‘stirish agrotexnologiyasining unsurlarini o‘rganish bo‘yicha I.V.Massino, H.N.Atabayeva, N.X.Xalilov, H.Yo‘ldoshev, T.E.Ostonaqulov, A.I.Massino, A.O‘.Maxmatmurodov, X.Q.Nazarov, Q.Q.Azizov, xorijda esa G.Ye.Shmaraev, I.P.Firsov, D. Shpaar, S.Kadirov, Yu.M.Xaritonov, EI-Gedwy, Jiang W. va boshqalar, Luiz Piati va boshqalar, Syafrizal, Yusril va boshqalar, Chen Z. va boshqalar, Ebrahimi, Hachem va boshqalar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan va muayyan natijalarga erishilgan.

Lekin, Samarqand viloyati qadimdan sug‘oriladigan o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida tishsimon makkajo‘xori nav va duragaylar to‘plamini asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirishga mosligini baholash, ulardan moslanuvchan istiqbollilarini ajratish, agrotexnologiyasini takomillashtirish borasida tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti (hozirgi Qarshi davlat texnika universiteti) ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2.2.5 “Global iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasini takomillashtirish, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari va uning ilmiy amaliy yechimlarini ishlab chiqish” mavzusi doirasida hamda № 49/24 xo‘jalik shartnomasi bo‘yicha bajarilgan (2022-2024-yillar).

Tadqiqotning maqsadi: Samarqand viloyati sug‘oriladigan o‘tloqi bo‘z tuproqlar sharoitida tishsimon makkajo‘xori mavjud hamda yangi rayonlashtirilgan nav-duragaylar to‘plamini asosiy va takroriy ekinlar sifatida har tomonlama baholash asosida moslanuvchan istiqbollilarini ajratib, ulardan barqaror yuqori va sifatli hosil olish texnologiyasining asosiy elementi maqbul organomineral o‘g‘itlar va o‘stiruvchi stimulyatorlar me‘yorlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tishsimon makkajo‘xori mavjud va yangi davlat reyestriga kiritilgan nav va duragaylar to‘plamini asosiy va takroriy ekinlar sifatida ekilganda fenologik fazalarning ro‘y berishi va o‘tishi, o‘sishi, rivojlanishi, barg sathi, fotosintetik faolligi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, don va silos massa hosildorligi,

³ <https://lex.uz/docs/-5309655>

⁴ <https://www.lex.uz/uz/docs/7353670>

moslanuvchanlik imkoniyati va koeffitsiyenti hamda donning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha baholash asosida moslanuvchan istiqbollilarini ajratish;

tishsimon makkajo'xori istiqbolli moslanuvchan yangi nav-duragaylarini turli organomineral o'g'itlash va o'stiruvchi stimulyatorlar me'yorlarida asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirishning rivojlanish davrlar davomiyligi, o'sishi, o'simlik va maydon birligida barg sathining shakllanishi, paykalning fotosintetik potentsiali, bargdagi xlorofill miqdori, fotosintez sof mahsuldorligi, o'simlik yer ostki va ustki qismlarining hosil bo'lish dinamikasi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari, don va silos massa hosildorligiga ta'sirini aniqlash;

ajratilgan tishsimon makkajo'xori nav va duragaylarini maqbul o'g'itlar va o'stiruvchi stimulyatorlar me'yorlarida asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash va amaliyotga tavsiyanoma ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyati qadimdan sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlari, tishsimon makkajo'xorining jami 9 ta shundan – 6 ta, ya'ni – o'rtapishar O'zbekiston-420 (standart), Samarqand tishsimoni, Qumqishloq, QarDU-1000, o'rtakechpishar Kelajak-100 (standart), Oqqari navlari; 3 ta, ya'ni MV-170 F₁(standart), NS6010 F₁, DKS 6664 F₁ geterozisli duragaylari hamda 4 ta organomineral o'g'itlar va o'stiruvchi stimulyatorlar me'yorlari olingan.

Tadqiqotning predmeti tishsimon makkajo'xorining nav-duragaylari, asosiy va takroriy ekinlar sifatida esa 4 ta o'g'itlar va o'stiruvchi stimulyatorlar me'yorlarida o'stirilganda urug' dala unuvchanligi, o'simlikning o'sishi va rivojlanishi, barg sathi hosil bo'lishi, paykalning fotosintetik potentsiali, bargdagi xlorofill miqdori, fotosintez sof mahsuldorligi, mahsuldorlik ko'rsatkichlarining shakllanishi, o'simlik yer ostki va ustki qismlarining rivojlanishi, don va silos massa hosildorligi va donning sifat ko'rsatkichlari hisoblangan.

Tadqiqotning usullari dala va ishlab chiqarish tajribalarini o'tkazish, ekish, ekinni parvarish qilish, hosilni yig'ish, kuzatish, o'lchash, hisoblash va tahlillar umumiy qabul qilingan "Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур", "Методика полевого опыта", "Методика полевого опыта в овощеводстве", "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari", "Методы агрохимических анализов почв и растений в Средней Азии", "Методы биохимического исследования растений", "Методические рекомендации по проведению полевых опытов с кукурузой", "Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o'tkazish uslubi" kabi uslub hamda tavsiyalar asosida amalga oshirilgan. Hosildorlik ko'rsatkichlari B.A.Dospexov va B.J.Azimov., B.B.Azimov uslublari bo'yicha Microsoft Excel dasturi yordamida matematik statistik tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Samarqand viloyati sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida tishsimon makkajo'xori mavjud va yangi rayonlashtirilgan nav-duragaylari to'plami asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirilib, kompleks baholangan. Natijada, asosiy va takroriy ekin sifatida o'stirishga istiqbolli moslanuvchan o'rtapishar – Qumqishloq, QarDU-1000, Samarqand tishsimoni, o'rtakechpishar – Kelajak-100,

Oqpari, NS6010F₁, KDS6664F₁ nav-duragaylari ajratilgan va ularda o'suv davri 86-103 kun, o'simlik jadal o'sishi, baland bo'yli (247,6-270,7 sm), serbargli (15,0-17,3 dona), barg sathili (0,97-1,4 m²) yoki maydon birligida 53,8-74,4 ming m²/ga, eng yuqori paykalning fotosintetik potentsiali (4419,7-5919,6 ming m²/ga x kun), baquvvat ildiz tizimli va yashil massali o'simlik (273,0-331,3 g va 1460,1-1704,1 g), yuqori mahsuldorlik (so'talar 2,2-2,7 dona, vazni 485,0-520,3 g), don (7,9-9,3 t/ga) va silos massa (72,4-92,5 t/ga) hosildorligi, moslanuvchanlik koeffitsiyenti (1,0 va undan ziyod) bo'lishi aniqlangan;

tishsimon makkajo'xori turli nav-duragaylari asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirilganda o'simlikning asosiy morfologik, xo'jalik-biologik belgilari o'rtasidagi bog'lanishlar tahlil qilinganda, ular orasida o'rta, o'rtachadan yuqori va yuqori darajada korrelyatsiyalar borligi aniqlangan;

ajratilgan moslanuvchan Qumqishloq, QarDU-1000 va Oqpari navlari turli organomineral o'g'itlar va o'stiruvchi stimulyatorlar me'yorlarida asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirib o'rganilganda, organomineral o'g'itlar - 20 t/ga go'ng – N₂₀₀ P₁₆₀ K₁₀₀ kg/ga + 10 g/ga o'stiruvchi gibberellin me'yorda birgalikda qo'llanilganda maqbul bo'lib, o'suv davri navlar bo'yicha 2-9 kungacha uzayishi, eng baland bo'yli (283,4-301,5 sm), barglangan (15,3-18,0 dona), barg sathili (1,16-1,49 m²), o'simliklar shakllangani, maydon birligida (54,44-66,67 ming m²) barg sathi hosil bo'lishi, eng yuqori paykalning fotosintetik potentsiali (3489,2-6944,1 ming m²/ga x kun), bargdagi xlorofill miqdori (705,2-759,4 mg), fotosintez sof mahsuldorligi (9,45-10,34 g/m² sutkada), baquvvat yer ostki va ustki qismi (289,1-349,1 g va 1610,1-1831,8 g) shakllanishi, don (8,9-9,5 t/ga) va silos massa (82,2-90,4 t/ga) hosildorligi hamda donning sifat ko'rsatkichlari (1000 ta don massasi, 1 litr don natura massasi)ga ijobiy ta'sir etib yirik, donador bo'lishi aniqlangan;

tishsimon makkajo'xori moslanuvchan nav-duragaylari turli o'g'itlar va stimulyatorlar me'yorlarida asosiy va takroriy ekinlar sifatida parvarishlanganda asosiy morfobiologik va xo'jalik belgi orasidagi korrelyatsiyalar aniqlanganda, o'rta, o'rtachadan yuqori va yuqori darajada to'g'ri va teskari korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyati qadimdan sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida tishsimon makkajo'xori turli nav-duragaylarini asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirib, o'suv davri, o'sishi, rivojlanishi, tupning shakllanishi, barg hosil qilishi, paykalning fotosintetik potentsiali, bargdagi xlorofill miqdori, fotosintez sof mahsuldorligi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari, don va silos massa hosildorligi, moslanuvchanlik imkoniyati va koeffitsiyenti, don sifat ko'rsatkichlari hamda saqlanuvchanligi bo'yicha baholanib, istiqbolli moslanuvchan o'rtapishar - Qumkishloq, QarDU-1000, Samarqand tishsimoni, o'rtakechpishar - Kelajak, Oqpari, NS6010F₁, KDS6664F₁ nav-duragaylari ajratilgan.

Ajratilgan moslanuvchan tishsimon makkajo'xori navlari (Qumqishloq-standart va QarDU-1000) turli organomineral o'g'itlar va o'stiruvchi stimulyatorlar me'yorlarida asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirilganda, maqbul bo'lib, 20 t/ga go'ng – N₂₀₀P₁₆₀K₁₀₀ kg/ga + 10 g/ga o'stiruvchi gibberellin me'yorda birgalikda

qo'llanilganda o'simlik o'sishi, rivojlanishi, baquvvat yer ustki va ostki qismlari hamda barg sathi shakllanishiga ijobiy ta'sir etishi, natijada, har gekardan moslanuvchan nav-duragaylar eng yuqori don hosildorligi (8,9-9,5 t/ga), sof daromad (5,450-6,350 ming so'm) va rentabellik darajasi (32,4-36,5 %) ta'minlangan. Yangi o'rtakechpishar Oqqari navining silos massa hosildorligi eng yuqori bo'lib, har gekardan 98,3-102,3 tonnani, eng arzon tannarxni (134,1-135,5 ming so'm /s), eng yuqori sof daromad (11,395-11,715 ming so'm) va rentabellik darajasiga (84,5-86,5 %) erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dala va ishlab chiqarish tajribalarining uslubiy jihatdan to'g'ri o'tkazilganligi, dissertatsiya ishida qo'llanilgan uslublarning tadqiqotlarni bajarishga mosligi, olingan natijalarning respublika va xorijiy olimlar tajribalari bilan taqqoslanganligi, ma'lumotlarning matematik-dispersion, korrelyatsion va iqtisodiy tahlil qilinganligi va ishonchliligi, tadqiqotlar natijalarining respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, shuningdek, tajribalar natijalarining O'zR OAK tomonidan e'tirof etilgan ilmiy nashrlarida chop etilib, ishlab chiqarishga joriy etilganligi va tavsiyalar yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati – Samarqand viloyati qadimdan sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlar sharoitida tishsimon makkajo'xori nav va duragaylar to'plami asosiy hamda takroriy ekinlar sifatida ekilganda fenofazalarning ro'y berishi va o'tishi, tezpisharligi, o'sishi, rivojlanishi, tupning shakllanishi, barg sathi, palak va ildiz hosil bo'lishi, paykalning fotosintetik faolligi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari, don va silos massa hosildorligi, moslanuvchanlik imkoniyati va koeffitsiyenti hamda donning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha kompleks baholanib, istiqbolli moslanuvchan nav-duragaylar ajratilganligi, ularni o'stirish texnologiyasining asosiy elementi, turli organomineral o'g'itlar va o'stiruvchi stimulyatorlar me'yorlarida asosiy va takror ekinlar sifatida o'rganilganligi, yuqori va sifatli don hosili olishga imkon beruvchi maqbul o'g'itlar me'yorlari va stimulyator me'yorlari ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Samarqand viloyatining eskidan sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitidagi fermer va tomorqa xo'jaliklarida tishsimon makkajo'xori asosiy va takroriy ekinlar uchun ajratilgan moslanuvchan o'rtapishar - Qumqishloq, QarDU-1000, Samarqand tishsimoni, o'rtakechpishar - Kelajak, Oqqari, NS6010F₁, KDS6664F₁ kabi nav-duragaylari tanlanganligi, ularni asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirish agrotexnologiyasining elementi – organomineral o'g'itlar – 20 t/ga go'ng – N₂₀₀ P₁₆₀ K₁₀₀ kg/ga + 10 g/ga o'stiruvchi gibberellin me'yorlari ishlab chiqilib, ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand viloyati eskidan sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlar sharoitida tishsimon makkajo'xori nav va duragaylarni tanlash hamda agrotexnologiyasini takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar asosida:

Tishsimon makkajo‘xori mavjud va yangi rayonlashtirilgan nav-duragaylar to‘plami o‘sishi, rivojlanishi va don hamda silos massa hosildorligi bo‘yicha kompleks baholanib, istiqbolli moslanuvchan o‘rtapishar – Qumqishloq, QarDU-1000, Samarqand tishsimoni, o‘rtakechpishar - Kelajak, Oqpari, NS6010F₁, KDS6664F₁ nav-duragaylari ajratilgan va Oqdaryo tumanida joylashgan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o‘quv tajriba xo‘jaligida asosiy ekin sifatida 1,5 gektar maydonda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-757-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, yangi moslanuvchan nav-duragaylar gektaridan 7,5-9,0 yoki standartdan 1,8-2,8 t/ga ziyod hosilni, 4,550-6,500 mln. so‘m sof foyda va 32,0-40,6 % rentabellikni ta‘minlagan;

tishsimon makkajo‘xori ajratilgan moslanuvchan nav-duragaylarini maqbul organomineral o‘g‘itlar – 20 t/ga go‘ng + 10 g/ga gibberellin stimulyatori me‘yorida birgalikda qo‘llab, asosiy ekin sifatida parvarishlash agrotexnologiyasi Oqdaryo tumanida jami 4,5 gektar maydonda joriy etilgan. Natijada, gektaridan 5,150-6,950 mln. so‘m sof foyda, 34,1-42,6 % rentabellik olingan. Shuningdek, takroriy ekin sifatida Oqdaryo tumanida jami 3,5 gektar maydonda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-757-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, gektaridan 4,700-6,800 mln. so‘m sof foyda, 31,8-42,0 % rentabellikka erishilgan.

Tadqiqot natijalari asosida “Samarqand viloyati sharoitida makkajo‘xoridan yuqori va sifatli hosil olishda nav-duragaylarning o‘rni, maqbul o‘g‘itlar va gibberellin stimulyatorining me‘yorlarini belgilashga oid tavsiyalar” ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 11-noyabrdagi 05/05-04-757-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma fermer xo‘jaliklari va agroklastlar uchun qo‘llanma sifatida keng foydalanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala va ishlab chiqarish tajribalari har yili universitet maxsus komissiyasi va respublika QXV, QXBIMM mutaxassisleri tomonidan sinovdan o‘tgan va ijobiy baholangan, jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida hamda har yili QarDMU (QarMII) irrigatsiya (texnologiya) fakulteti yillik ilmiy hisobotlari va «Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi» kafedrasining kengaytirilgan yig‘ilishida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, 1 ta monografiya, 1 ta ishlab chiqarishga tavsiyalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va uslublari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tishsimon makkajo‘xori nav va duragaylarining turli muddat, o‘g‘itlash va o‘stiruvchi stimulyatorlarda o‘rganilganligi bo‘yicha manbalar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida tishsimon makkajo‘xori donining tuzilishi, morfologik xususiyatlari, biokimyoviy tarkibi, nav va duragaylarni asosiy va takroriy ekinlar sifatida don uchun o‘stirilganda morfobiologik xususiyatlari hamda agrotexnik tadbirlarning o‘rni, tishsimon makkajo‘xori turli muddatlarda o‘stirilganda o‘g‘itlash va o‘stiruvchi stimulyatorlardan foydalanishning o‘rganilganligi, makkajo‘xori don uchun yetishtirilganda boshqa agrotadbirlarning xorijiy va mahalliy adabiyot va manbalarda yoritilganligi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot joyi, tuproq-iqlim ta‘riflari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba joyi, tuproq va iqlim sharoitlari, yo‘nalishlari, obyekti, predmeti va uslublari, tajriba dalasida asosiy va takroriy ekinlar sifatida don uchun tishsimon makkajo‘xori o‘stirish agrotexnologiyasi va texnologik kartasi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dala tajribalari 2022-2024 yillar davomida Samarqand viloyati Oqdaryo tumani hududida joylashgan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (SamDVMCh va BU) o‘quv tajriba xo‘jaligida, ishlab chiqarish sinovi tajribalari esa “Dahbed mo‘l hosili” fermer xo‘jaligi va “Iftixor qurilish” MChJ dalalari sharoitida olib borilgan. Tajriba o‘tkazilgan dalaning sug‘oriladigan o‘tloqi bo‘z tuproqlari 0-30 sm qatlamidagi gumus miqdori 0,92-0,96 % va 30-50 sm qatlamida esa 0,77-0,79 % bo‘lib, nitrat azoti, tegishli ravishda, 6,80-7,34 va 4,48-4,84, harakatchan fosfor – 14,46-15,17 va 12,13-13,31, almashinuvchi kaliy – 212-217 va 183-189 mg/kg ekanligi, quruq qoldiq 0,126-0,138, shundan xlor ioni 0,015-0,022 % bo‘lib, sho‘rlanmaganligini ko‘rsatgan.

Tadqiqot oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun quyidagi yo‘nalishlarda dala tajribalari olib borilgan:

1-tajriba. Tishsimon makkajo‘xori mavjud va yangi yaratilgan nav va duragaylar to‘plamini asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirilganda fenologik fazalarning ro‘y berishi va o‘tishi, o‘sishi, rivojlanishi, barg sathi, fotosintetik faolligi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, don va silos massa hosildorligi, moslanuvchanlik imkoniyati va koeffitsiyenti bo‘yicha baholash. Tajribada tishsimon makkajo‘xorining jami 9 ta, shundan – 6 ta, ya‘ni – o‘rtapishar O‘zbekiston-420, standart, Samarqand tishsimoni, Qumqishloq, QarDU-1000, o‘rtakechpishar Kelajak-100, standart, Oqqari navlari; 3 ta, ya‘ni MV-170 F₁

standart, NS6010 F₁, DKS 6664 F₁ geterozisli duragaylari asosiy ekin sifatida 4-6 aprelda, takroriy ekin sifatida 27-30 iyunda 90x20 sm tartibda ekilib, o'zaro taqqoslandi. Delyankaning maydoni 36 m², takrorlar soni 3 ta bo'lgan.

2-tajriba. Tishsimon makkajo'xori istiqbolli moslanuvchan nav-duragaylarini turli organomineral o'g'itlar va o'stiruvchi stimulyatorlar me'yorlarida asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirishning rivojlanish davrlar davomiyligi, o'sishi, o'simlik va maydon birligida barg sathining shakllanishi, paykalning fotosintetik potentsiali, o'simlik yer ostki va ustki qismlarining hosil bo'lish dinamikasi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari, don va silos massa hosildorligiga ta'sirini aniqlash. Buning uchun tishsimon makkajo'xorining Qumqishloq (standart), QarDU-1000 va Oqqari navlari ajratib olinib, ular asosiy va takroriy ekinlar sifatida 4 ta (1. 20 t/ga go'ng+N₁₀₀P₈₀K₅₀; 2. 20 t/ga go'ng+N₂₀₀P₁₆₀K₁₀₀(nazorat); 3. 20 t/ga go'ng+N₂₀₀P₁₆₀K₁₀₀ kg/ga +5 g gibberellin; 4. 20 t/ga go'ng+N₂₀₀P₁₆₀K₁₀₀ kg/ga +10 g gibberellin) organomineral o'g'itlar va o'stiruvchi stimulyatorlar me'yorlarida o'rganilgan. Ekish 90x20 sm sxemada 5-6 sm chuqurliklarda amalga oshirilgan. Delyankaning maydoni 36 m². Takrorlar soni 3 ta bo'ldi. Tajriba umumiy maydoni 2592 m² ni tashkil etgan.

Ishning **“Asosiy va takroriy ekinlar sifatida tishsimon makkajo'xori yangi nav hamda duragaylarini o'rganish yakunlari”** deb nomlangan uchinchi bobida yangi o'rganilgan nav va duragaylarda rivojlanish fazalarining ro'y berishi, o'tishi, davomiyligi hamda o'simlikning o'sishi, maydon birligida barg sathi va fotosintetik faolligi, o'simlik yer ostki va ustki qismlarining shakllanishi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari, don va ko'k massa hosildorligi, nav va duragaylarning moslanuvchanlik koeffitsiyenti, donning sifat ko'rsatkichlari va saqlanuvchanligi hamda iqtisodiy samaradorligini o'rganish bo'yicha tadqiqot yakunlari keltirilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tishsimon makkajo'xori o'rganilgan nav va duragaylarining o'suv davri asosiy ekin sifatida o'stirilganda 90-108 kunning tashkil etib, nisbatan tezpishar (90-97 kun) QarDU-1000, Samarqand tishsimoni, Qumqishloq, MV-170 F₁, standart O'zbekiston-420 nav-duragaylari bo'lgan. Takroriy ekin sifatida esa o'suv davri 86-103 kunning tashkil qilib, nisbatan tezpishar (86-94 kun) – Qumqishloq, Samarqand tishsimoni, QarDU-1000, MV-170 F₁, O'zbekiston-420 nav-duragaylari ekanligi aniqlangan.

O'simlikning o'sish va rivojlanishi sinalgan nav va duragaylarda asosiy va takroriy ekin sifatida o'stirilganda sezilarli o'zgarib, jadal o'sish so'talash davrigacha kuzatilib, baland bo'yli (247,6-270,7 sm), serbargli (15,0-17,3 dona) yoki eng yuqori barg sathili (0,97-1,3 m²) o'simliklar Qumqishloq, QarDU-1000, Kelajak-100, Oqqari, MV-170 F₁, NS6010 F₁, DKS 6664 F₁ nav-duragaylarida qayd etilgan.

Asosiy va takroriy ekinlar sifatida makkajo'xorining yangi nav va duragaylari o'stirilib, o'simlikning bo'yi hamda barg sathi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik tahlil qilinganda, bu ko'rsatkichlar orasida o'rta darajadan yuqoriroq ijobiy bog'liqlik kuzatilib, korrelyatsiya koeffitsiyenti $r=0,688$ ($R^2=0,4737$) ga teng ekanligi aniqlangan.

Maydon birligida barg sathi shakllanishi keskin farqlanib, so'talash davrida asosiy va takroriy ekin sifatida tishsimon makkajo'xori nav va duragaylarida eng yuqori barg sathi (53,8-74,4 ming m²/ga) Samarqand tishsimoni, Qumqishloq, QarDU-1000, Oqqari, MV-170 F₁, NS6010 F₁ nav va duragaylarida kuzatilgan.

O'suv davri davomida paykalning fotosintetik potentsiali asosiy ekin sifatida o'stirilganda o'rganilgan nav-duragaylar bo'yicha 3079,5 dan (O'zbekiston-420) 5919,6 ming m²/ga x kunda (Oqqari)gacha, takroriy ekin sifatida ekilganda esa 3323,2 dan 4955,8 ming m²/ga x kungacha tashkil etgan. Eng yuqori paykalning fotosintetik potentsiali (4419,7-5919,6 ming m²/ga x kun) Qumqishloq, QarDU-1000, Kelajak-100, Oqqari, NS6010 F₁, DKS 6664 F₁ nav-duragaylarida ma'lum bo'lgan.

Maydon hisobida barg sathining shakllanishi bilan o'simlikning fotosintetik potentsiali o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik hisoblanganida, mazkur ko'rsatkichlar o'rtasida yuqori darajadagi ijobiy bog'liqlik kuzatilib, korrelyatsiya koeffitsiyenti $r=0,904$ ($R^2 = 0,8163$) ni tashkil etgani qayd etilgan.


Bargda eng ko'p xlorofill miqdori asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirilganda ro'vaklash davrida (695,4-754,1 mg) Samarqand tishsimoni, Qumqishloq, QarDU-1000, Oqqari, NS6010 F₁, DKS 6664 F₁ nav-duragaylarida aniqlanib, shunda eng yuqori fotosintez sof mahsuldorligi (FSM) ham (9,78-10,92 g/m² sutkada) qayd etilgan.

Tishsimon makkajo'xori o'rganilgan nav va duragaylari asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirilganda baquvvat ildiz tizimli va yashil massali o'simlik yer ustki qismi butun o'suv davri davomida, shu jumladan so'talash davrida 273,0-331,3g yer ostki, 1460,1-1704,1 g yer ustki massa Samarqand tishsimoni, Qumqishloq, QarDU-1000, Oqqari, NS6010 F₁ va DKS 6664 F₁ nav-duragaylarida aniqlangan.

Asosiy mahsuldorlik ko'rsatkichlari, ya'ni tupdagi eng ko'p so'talar soni (2,2-2,7 dona), so'talar vazni (485,0-520,3 g), eng yuqori don chiqimi (83,7-85,0 %), eng yirik donlar (1000 tasining vazni 419-456 g) Samarqand tishsimoni, Qumqishloq, QarDU-1000, NS6010 F₁ nav-duragaylarida qayd etilgan.

Tishsimon makkajo'xori nav va duragaylarini to'g'ri tanlab, asosiy va takroriy ekinlar sifatida parvarishlash orqali gektaridan 7,9-9,3 tonna don hosili va 72,4-95,3 tonna silos massa hosili ta'minlangan (1-rasm).

Asosiy va takroriy ekinlar sifatida tishsimon makkajo'xori nav-duragaylari moslanuvchanlik imkoniyati va koeffitsiyenti bo'yicha o'rganilganda, eng yuqori moslanuvchanlik koeffitsiyenti (1,0 va undan ziyod) don hosildorligi bo'yicha Samarqand tishsimoni, Qumqishloq, QarDU-1000, Kelajak-100, NS6010 F₁, DKS 6664 F₁, silos massa hosildorligi bo'yicha Samarqand tishsimoni, Qumqishloq, QarDU-1000, MV-170 F₁, NS6010 F₁ nav va duragaylari ma'lum bo'ldi. Tishsimon makkajo'xorining moslanuvchan nav-duragaylarini asosiy va takroriy ekinlar sifatida parvarishlash har gektardan 7,9-9,3 tonna don hosili, 5,150-7,250 ming so'm sof daromad va 35,3-45,3 % rentabellikni ta'minlangan.



1-rasm. Makkajo‘xori nav va duragaylari asosiy va takroriy ekinlar sifatida o‘stirilganda don va silos massa hosildorligi (2022-2024 yillar)

Dissertatsiyaning “Makkajo‘xori moslanuvchan yangi navlarini asosiy va takroriy ekinlar sifatida turli o‘g‘itlash va o‘stiruvchi stimulyatorlar me‘yorlarida baholash” deb nomlangan to‘rtinchi bobida, moslanuvchan yangi navlarni asosiy va takroriy ekinlar sifatida turli o‘g‘itlash va o‘stiruvchi stimulyatorlar me‘yorlarida o‘stirilganda fenologik davrlarning davomiyligi, o‘simlikning o‘shish va barglanish dinamikasi, maydon birligida barg sathi shakllanishi va paykalning fotosintetik potentsiali, bargdagi xlorofill miqdori va fotosintez sof mahsuldorligi (FSM), o‘simlik yer ostki va ustki qismlarining hosil bo‘lishi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, don hamda silos massa hosildorligi, donning sifat ko‘rsatkichlari va saqlanuvchanligi, iqtisodiy samaradorligi batafsil bayon etilgan.

Olingan ma‘lumotlarning ko‘rsatishicha, tishsimon makkajo‘xori ajratilgan moslanuvchan yangi navlari asosiy va takroriy ekinlar sifatida turli organomineral o‘g‘itlar va o‘stiruvchi stimulyatorlar me‘yorlarida o‘shish va rivojlanishi o‘rganilganda, organomineral o‘g‘itlar – 20 t/ga go‘ng + N₂₀₀P₁₆₀K₁₀₀ kg/ga + 10 g gibberellin stimulyatori birga qo‘llab o‘stirilganda o‘suv davri 2-9 kungacha uzayishi, eng baland bo‘yli (283,4-301,5 sm) va barglangan (15,3-18,0 dona) o‘simliklar shakllanishi aniqlangan.

Ajratilgan makkajo‘xorining yangi navlari turli o‘g‘itlash va o‘stiruvchi stimulyatorlar me‘yorlarni qo‘llab parvarishlanganda, o‘simlikning bo‘yi va barglanishi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqni hisoblanganida, yuqori darajaga yaqin ijobiy bog‘liqlik kuzatilib, korrelyatsiya koeffitsiyenti $r=0,739$ ($R^2=0,5460$) ni tashkil etgan.

O‘suv davri davomida asosiy ekin sifatida sinalgan tishsimon makkajo‘xori yangi navlari turli o‘g‘itlar va o‘stiruvchi stimulyatorlar me‘yorida o‘stirilganda


paykalning fotosintetik potentsiali 3489,2-6944,1, takroriy ekin sifatida o‘stirilganda esa 2532,9-5873,3 ming m²/ga x kunda tashkil etgan. Eng yuqori PFPi organomineral o‘g‘itlar – 20 t/ga go‘ng + N₂₀₀P₁₆₀K₁₀₀ kg/ga + 10 g gibberellin stimulyatori me‘yorida birga qo‘llab asosiy ekin sifatida parvarishlanganda, standart Qumqishloq navida 5111,1-5573,6; QarDU-1000 navida 3489,2-4988,8; Oqqari navida 6643,3-6944,1; takroriy ekin sifatida esa, mos ravishda navlar bo‘yicha – 4091,4-4418,6; 3863,4-3871,6; 5631,9-5873,3 ming m²/ga x kunda tashkil qilgani aniqlangan.

Makkajo‘xoring yangi navlari turli o‘g‘itlash va o‘stiruvchi stimulyatorlar me‘yorlarida o‘stirilganda, maydondagi barg sathi va paykalning fotosintetik potentsiali o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liq tahlil qilinganda, yuqori darajada ijobiy bog‘liqlik kuzatilib, korrelyatsiya koeffitsiyenti $r=0,964$ ($R^2 = 0,9294$) ni tashkil etgan (2-rasm).

Bargdagi xlorofill miqdori va FSMi tishsimon makkajo‘xori ajratilgan moslanuvchan yangi navlari turli organomineral o‘g‘itlar va o‘stiruvchi stimulyator (gibberellin) me‘yorlarida o‘stirilganda sezilarli o‘zgarib, eng yuqori xlorofill miqdori (705,2-759,4 mg) va fotosintez sof mahsuldorligi (9,45-10,34 g/m² sutkada) ro‘vklash davrida kuzatilgan.

Tishsimon makkajo‘xori moslanuvchan navlari turli o‘g‘itlash va o‘stiruvchi stimulyatorlar me‘yorlarida asosiy va takroriy ekinlar sifatida parvarishlanganda yer ustki va ostki qismlarining shakllanishi rivojlanish davrlari bo‘yicha keskin farqlanib, jadal suratlarda o‘shish so‘talash davrida organomineral o‘g‘itlar – 20 t/ga go‘ng + N₂₀₀P₁₆₀K₁₀₀ kg/ga + 10 g me‘yorda gibberellin birgalikda qo‘llanilganda aniqlangan. Shunda mahsuldorlik ko‘rsatkichlari ham eng yuqori ekanligi qayd etilgan.

Samarqand viloyati eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida tishsimon makkajo‘xori ajratilgan moslanuvchan yangi o‘rtapishar navlarini asosiy



2-rasm. Turli o‘g‘itlash va o‘stiruvchi stimulyatorlarda navlar o‘stirilganda barg sathi shakllanishi bilan paykalning fotosintetik potentsiali o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik

va takroriy ekinlar sifatida organomineral o'g'itlar – 20 t/ga go'ng + N₂₀₀P₁₆₀K₁₀₀ kg/ga + 10 g gibberellin me'yorida birgalikda qo'llab parvarishlash maqbul bo'lib, gektaridan 8,9-9,5 tonna don hamda 82,2-90,4 tonna va ziyod silos massa hosili olish imkonini bergan (1-jadval). O'rtakechpishar Oqqari navi esa silos massa yo'nalishida bo'lgani uchun gektaridan 98,3-102,3 tonna ko'k massa va nisbatan yuqori 5,4-5,9 tonna don hosilini ta'minlagan. Asosiy va takroriy ekinlar sifatida makkajo'xori yangi navlari turli o'g'itlar va o'stiruvchi stimulyatorlar me'yorlarida parvarishlanib, don va silos massa hosildorligi o'rtasidagi bog'lanish hisoblanganda, o'rta darajada teskari ijobiy korrelyatsiya $r = -0,380$ ($R^2 = 0,1441$) mavjudligi kuzatilgan (3-rasm).


1-jadval

Tishsimon makkajo'xori ajratilgan yangi navlari asosiy va takroriy ekinlar sifatida turli o'g'it hamda o'stiruvchi stimulyatorlar me'yorlarida o'stirilganda don hosildorligi (2022-2024 yillar)

T/r	Tajriba variantlari		Yillar bo'yicha don hosildorligi, t/ga				Nazoratga nisbatan farq	
	Nav nomi	O'g'it va stimulyator me'yorlari, kg/ga	2022	2023	2024	o'rtacha	t/ga	%
Asosiy ekin sifatida								
1.	Qumqishloq (st.)	20 t/ga go'ng+N ₁₀₀ P ₈₀ K ₅₀	6,9	7,4	7,3	7,2	-1,4	83,7
2.		20 t/ga go'ng+N ₂₀₀ P ₁₆₀ K ₁₀₀ (nazorat)	8,2	8,9	8,7	8,6	-	100,0
3.		20 t/ga go'ng+N ₂₀₀ P ₁₆₀ K ₁₀₀ +5 g gibberillin.	8,5	9,1	9,4	9,0	0,4	104,7
4.		20 t/ga go'ng+N ₂₀₀ P ₁₆₀ K ₁₀₀ +10 g gibberillin.	8,7	9,4	9,5	9,2	0,6	107,0
		$S_x(\%) =$	1.1	1.0	2.0			
		EKF ₀₅ =	0.2	0.2	0.4			
5.	QarDU-1000	20 t/ga go'ng+N ₁₀₀ P ₈₀ K ₅₀	7,2	7,7	7,3	7,4	-1,5	83,1
6.		20 t/ga go'ng+N ₂₀₀ P ₁₆₀ K ₁₀₀ (nazorat)	8,4	9,2	9,1	8,9	-	100,0
7.		20 t/ga go'ng+N ₂₀₀ P ₁₆₀ K ₁₀₀ +5 g gibberillin.	9,0	9,5	9,4	9,3	0,4	104,5
8.		20 t/ga go'ng+N ₂₀₀ P ₁₆₀ K ₁₀₀ +10 g gibberillin.	9,2	9,9	9,4	9,5	0,6	106,7
		$S_x(\%) =$	4.0	1.0	1.8			
		EKF ₀₅ =	0.8	0.2	0.4			
9.	Oqqari	20 t/ga go'ng+N ₁₀₀ P ₈₀ K ₅₀	3,7	4,4	4,5	4,2	-1,1	79,3
10.		20 t/ga go'ng+N ₂₀₀ P ₁₆₀ K ₁₀₀ (nazorat)	5,0	5,4	5,5	5,3	-	100,0
11.		20 t/ga go'ng+N ₂₀₀ P ₁₆₀ K ₁₀₀ +5 g gibberillin.	5,4	5,9	5,5	5,6	0,3	114,3
12.		20 t/ga go'ng+N ₂₀₀ P ₁₆₀ K ₁₀₀ +10 g gibberillin.	5,6	6,1	6,0	5,9	0,6	120,4
		$S_x(\%) =$	2.4	1.8	2.6			
		EKF ₀₅ =	0.3	0.2	0.3			
Takroriy ekin sifatida								
13.	Qumqishloq (st.)	20 t/ga go'ng+N ₁₀₀ P ₈₀ K ₅₀	6,6	7,1	7,0	6,9	-1,5	82,1
14.		20 t/ga go'ng+N ₂₀₀ P ₁₆₀ K ₁₀₀ (nazorat)	8,1	8,8	8,3	8,4	-	100,0
15.		20 t/ga go'ng+N ₂₀₀ P ₁₆₀ K ₁₀₀ +5 g gibberillin.	8,4	9,2	8,5	8,7	0,3	103,6
16.		20 t/ga go'ng+N ₂₀₀ P ₁₆₀ K ₁₀₀ +10 g gibberillin.	8,7	9,4	8,6	8,9	0,5	106,0
		$S_x(\%) =$	0.9	1.0	1.4			
		EKF ₀₅ =	0.2	0.2	0.2			
17.	QarDU-1000	20 t/ga go'ng+N ₁₀₀ P ₈₀ K ₅₀	6,8	7,0	7,5	7,1	-1,4	83,5
